O‘ZBEK TILIDA SO‘Z O‘ZLASHUVI MASALALARINING O‘RGANILISHI TARIXI

Qodirova Umida Abdurazzoq qizi, *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti*

Ilmiy rahbar: Baxronova D.K.

Annotatsiya: Til dinamik rivojlanayotgan tizim sifatida doimo takomillashib, boyib boradi. Yangi til birliklari paydo bo‘ladi, boshqalari esa, aksincha, eskirib, arxaizm va istorizmga aylanadi. Tilning leksik tarkibini boyitishning ko‘plab usullari mavjud, masalan, yangi so‘z yasamalarining paydo bo‘lishi (xususan, leksik-semantik usul), boshqa tillardan o‘zlashuvlar, til lug‘atini boyitishning morfologik usuli va hk. Ushbu maqolada o‘zlashish jarayoni va ularning o‘rganilish darajasi tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: leksika, semantika, o‘zlasmalar, lug‘at, til tarixi, leksikologiya.

“O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobida rus tilshunoslaridan L. P. Krisin, N. M. Shanskiy, A. V. Kalinin, M. I. Fomina, V. V. Akulenko, N. Sharopovlarning ishlariga murojat qilingan holda so‘z o‘zlashtirish ta’rifiga quyidagicha fikr bildiriladi:

“O‘zlashtirish - bir tildan ikkinchi tilga ma lum til elementlarining ko‘chishi, kirishidir”. M. D. Stepanov va I. I. Chernishevlar so‘z o‘zlashtirish deb, chet so‘zlarning tillarga kirib kelishi, ularning o‘zlashish natijasi va ularning umumiy majmuini tushunadilar.

Ma’lumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so‘z tabiiy ravishda o‘sha tilning fonetik, orfografik, grammatik elagidan o‘tadi. Bunda so‘z o‘qilishi, yozilishi va tuzilishi bo‘yicha o‘zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta’siri ostida ayrim o‘zgarishlarni boshidan kechiradi, ya’ni chet so‘zlar qabul qiluvchi til tizmiga ma’lum darajada bo‘ysunadi [1]. Ular boshqacha o‘qilishi, boshqacha yozilishi, ayrim harf va tovushlarning tushirib qoldirish yoki ortiqcha qo‘shib



aytilishi, hatto shakli va qiyofasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. O‘zbek tilshunosligida bu xususiyatlar 7 xilga bo‘lib o‘rganiladi:

1. O‘zlashma so‘z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo‘lishi.
2. Chet so‘z o‘zlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi.
3. So‘z uni qabul qilgan tilda qayta fonetik shakllanishi.
4. Chet so‘z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi.
5. Chet so‘z uni qabul qiluvchi til so‘z yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi.
6. Chet so‘z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:
7. Chet so‘z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak.

Bu yuqorida nomlangan xususiyatlar borasida tilshunoslar yakdil, ya’ni chet so‘z o‘zlashayotgan tilga qabul qilinib unda mustahkam o‘rnashib, singishib ketishi uchun quyidagi talablar bo‘yicha ular deyarli bir xil fikr bildiradilar. Ammo chet so‘zlarning ular o‘zlashgan tillarda nomlanishi, differentsiatsiya qilinishi, terminologik birliklarning qo‘llanilishi nazarda tutilib, bu obyektiv va zaruriy faktor o‘rganiladigan bo‘linsa, shu paytgacha qilingan ishlarda chet so‘zlar turlicha terminlar, differentsiatsiyalar ostida tahlil qilinganini ko‘ramiz.

Chet so‘zmi yoki o‘zlashma? Bir tildan ikkinchisiga kirib kelib, chet so‘zning qay darajada qabul qiluvchi tilga o‘zlashib ketganligini aniqlash, ayniqsa ularni chet so‘z va o‘zlashmalarga ajratishning qiyin ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta ta’kidlab kelinmoqda. Bu masala bilan birinchilar qatorida shug‘ullangan nemis tilshunoslari o‘zlashgan so‘zlarni “aniq qilib chet so‘z yoki o‘zlashma ekanligini farqlab berish ba’zi bir sabablarga ko‘ra qiyin ekanligi”, “chet so‘zlar masalasi cho‘g‘ temir ekanligi, kimki unga qo‘l urmoqchi bo‘lsa osongina barmoqlarini kuydirib olishi” mumklinligini uqdirishgan edi. Ta’kidlangan qiyinchiliklarga, “ogohlantirishlarga” qaramay, tilshunoslikda o‘zlashgan so‘zlar klassifikatsiyasi bo‘yicha katta ishlar qilindi, ilmiy fikr mulohazalar bildirildi.



O‘zlashgan so‘zlar olimlar tomonidan, avvalo, ikki ko‘rinishda, yani chet so‘z va o‘zlashmalarga bo‘linib tahlil qilindi. Agar o‘zlashgan so‘z o‘zi qabul qilingan tilga singishib, fonetik, orfografik, grammatik jihatdan moslashib ketsa, uni o‘zlashma, begonaligicha qolaversa, uni chet so‘z deb nomlashning o‘zi kifoya bo‘lgan bu jarayon olimlar tomonidan turlicha izohlanildi[2].

Nemis olimi E.Vassersier XV asrgacha o‘zlashgan so‘zlarni “o‘zlashma”, XVI asrdan keyin kirib kelgan so‘zlarni “chet so‘zlar” deb olmoq kerak, - deydi. Rus tilshunosi A.P.Mayorov ham bu fikrni quvvatlaydi. U chet so‘zlarning nemis tilidagi leksiksemantik assimilyatsiyasi masalalarini o‘rganayotib: ”Chet so‘zlar ostida nemis tiliga taxminan XV asrdan keyin kirib kelgan va o‘zlarining chet tillaridan kirib kelganligini (o‘qilishi, yozilishi va urg‘usi bilan) bildirib turuvchi so‘zlar tushuniladi”, - deydi.

Ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, E.Vassersier va A.Mayorovlar chet so‘zlar differentsiatsiya qilishda mezon qilib vaqtni olishgan va bir asrni belgilashgan. Fikrimizcha, bu kriteriya ishonarli emas, buning ustiga ko‘p chalkashliklar bilan bog‘liq. Birinchidan bu masalada kelishib, yani bir asrdan u yog‘i o‘zlashma va bu yog‘i chet so‘z bo‘lsin deb klassifikatsiya qilib bo‘lmaydi. Zero, bu tillarning rivojlanishi va o‘zaro ta’siri qonuniyatlarini chuqurroq o‘rganishdan qochish demakdir.To‘g‘ri, biror tilga qarashli bo‘lgan so‘zning ikkinchi bir tilga o‘tib, unga moslashib ketishi uchun vaqt kerak. Ammo biror asrni chegara qilib belgilash, til lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlarni, so‘z o‘zlashtirishning o‘ziga yarasha xususiyatlarini daraja-badaraja, tadrijiy o‘rganishdan ko‘z yumish yoki chetlab o‘tishni anglatadi.

Chet so‘zlarning o‘zlashuvi borasida XIX asr oxirlarida nemis olimi F.Miklozix tomonidan ikkinchi bir fikr o‘rtaga tashlangan. U yozadi: “Til tarixida ikki davr farqlanmog‘i kerak. Birinchi davrda boshqa til egalari bilan munosabat kam, so‘z o‘zlashtirish oz, til esa o‘zining ichki qonuniyatlariga zid bo‘lgan har bir jarayonga nisbatan o‘ta sezgir bo‘lgan, qabul qilingan chetki materiallarni o‘z qatlamiga moslashtirgan. Ikkinchi davrda esa, chet so‘zlar ko‘plab, yalpi ravishda



kirib kela boshlagan, til begona ta’sirga o‘z sezgilarini yo‘qotgan, natijada qabul qilingan yangi material o‘z begona shaklini saqlab qola boshlagan” [3]. F.Miklozix fikrida ilmiylik bor. Chunki so‘z o‘zlashuvi o‘zlashgan so‘zlar soni va hajmiga albatta va bevosita bog‘liq bo‘ladi. Lekin dunyo tillari rivojlanishining xarakterli xususiyatlaridan biri borki, u ham bo‘lsa tillarning tashqi ta’siriga nisbatan, ayniqsa, undan qabul qilinadigan so‘zlarni, iloji boricha, saylab olishga intiladi. Til xalqning hayotiy zarur, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini ifodalovchi so‘zlarni tez qabul qiladi, o‘zlashtiradi va o‘ziga moslashtiradi.

Chet so‘z va o‘zlashmalarni aniq farqlashga harakat qilgan olimlardan yana biri V.Shmitdir. U qiziq, ammo qisqa va aniq fikr aytgan: “O‘zlashgan so‘zlar deb, tilga moslashib olgan, kelib chiqishini faqat etimologik tahlil orqaligina bilsa bo‘ladigan so‘zlarga aytiladi”[4]. Ular tilga tashqi ko‘rinish, urg‘usi va fleksiyasi bo‘yicha moslashib olgan bo‘ladilar.

Bu masalalar o‘zbek tilshunosligida anchadan beri olimlarimizning diqqatini o‘ziga tortib keldi. Sharqshunos A. K. Borovkovning “O‘zbek adabiy tili 1905-1917 yillarda”nomli yirik asarida olim so‘z o‘zlashtirilish masalalariga o‘zbek tilshunosligida birinchi bo‘lib katta e’tibor berdi: “...biron bir xalqning aqliy kamolatini aniqlash uchun uning tilini o‘rganishning o‘zi yetarlidir, agar tilda biror fan sohasiga oid sotsial iboralar bo‘lsa bu fan ayni shu tilda gapiradigan xalq tomonidan yaratilgan deb komil ishonch bilan aytish mumkin. Va aksincha, agar biror bir narsa nomi mazkur xalqning o‘ziniki bo‘lmay, boshqa xalq tilidan olingan bo‘lsa, demak, o‘sha predmetning o‘zi ham shu xalqda bo‘lmagan” [5].

M. Mirzayev, M. Po‘latov, R. Doniyorov, I.Rasulov, G. Muhammadjonov va S. Akbarovlar o‘zlarining yuqorida nomlangan ilmiy ishlarida rus tili va o‘zbek tilining o‘zaro aloqalarini atroflicha o‘rganib chiqib, rus tili orqali tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan til birliklarini o‘rganishni alohida ta’kidlashdi. Bu borada dastlabki ishlardan biri U. Usmonov va R. Doniyorovning “Ruscha- internatsional so‘zlarning lug‘ati” o‘zlashma so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini talqin etishda katta voqea bo‘ldi. O. Usmonov va Sh. Hamidovning “O‘zbek tili leksikasi tarixidan”



nomli asari chop etildi. Bu yirik tadqiqot 19-asrning oxiri 20- asrning boshlarida o‘zbek tili lug‘ati tarkibida yuz bergan o‘zgarishlarni, xususan rus tilining o‘zbek tili

taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’sirini yoritish masalasiga bag‘ishlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bahronova D. Olam manzaralari ifodasida milliy-madaniy va lingvogeografik omillarning roli// Cientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”. — 2021. № 3 (38). — B. 41-51. — URL: https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)

2. Baxronova D.K., Abduraxmatova N.O. Ispan va o‘zbek tillariga o‘zlashgan neologizmlarning tarixiy-semantik tadqiqi // Молодой ученый. — 2021. — № 52 (394). — C. 446-449. — URL: https://moluch.ru/archive/394/87140/

3. Xamidova, D. Koreys tilidagi o‘zlashma so‘zlarning etimologik va semantik xususiyatlari // ORIENSS. 2021. №Special Issue 2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/koreys-tilidagi-o-zlashma-so-zlarning-etimologik-vasemantik-xususiyatlari.

4. Burxonov O‘. (2022) “Arabizmlarlarning ispan tili leksikasiga o‘zlashganlik tarixiga doir” // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. — 2022. — Volume 2, Issue 7. — B. 27-34. (ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022.

5. Anorboyeva S. Theoretical issues of formation of translation competence in the education system of the Republic of Uzbekistan. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. ISSN 2181-1784. VOLUME 1, ISSUE 4. Impact Factor: 5.423. May 2021.

